

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

JUMAYEVA GULNISO YULCHI QIZI

**SUVNI ORGANIK VA NOORGANIK IFLOSLANTIRUVCHILARDAN
TOZALASH UCHUN AKRILAMID SOPOLIMERLARI ASOSIDA
FLOKULYANTLAR OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)

Jumayeva Gulniso Yulchi qizi

Suvni organik va noorganik ifloslantiruvchilardan tozalash uchun akrilamid sopolimerlari asosida flokulyantlar olish texnologiyasini ishlab chiqish 3

Жумаева Гулнисо Юлчи кизи

Разработка технологии получения флокулянтов на основе сополимеров акриламида для очистки воды от органических и неорганических загрязнителей..... 21

Jumayeva Gulniso Yulchi qiz

Development of a Technology for Producing Flocculants Based on Acrylamide Copolymers for the Purification of Water from Organic and Inorganic Pollutants... 39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

JUMAYEVA GULNISO YULCHI QIZI

**SUVNI ORGANIK VA NOORGANIK IFLOSLANTIRUVCHILARDAN
TOZALASH UCHUN AKRILAMID SOPOLIMERLARI ASOSIDA
FLOKULYANTLAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2025.1.PhD/T5223 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshmetov Izzat Do'simbatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxkamov Ravshan Raximovich
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Abduraximov Akmal Xodjiakbarovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.02.30.12.2019.K/T.35.01 raqamli Ilmiy kengashning «18» dekabr 2025 yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (+99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90, e-mail: ionxanruz@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60); faks: (+99871) 262-79-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «4» dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «4» dekabrda № 23- reyestr bayonnomasi)



B.S.Zakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

D.S.Salixanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

O.Yu.Ismoilov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda suvni tayyorlash, foydali qazilmalarni boyitish va chiqindi suvlarni tozalashga qo'yilayotgan talablar ortib borishi bilan to'g'ridan-to'g'ri ravishda tiniqlashtirish, quyultirish va filtrlash jarayonlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan qattiq va suyuq fazani tez va barqaror ajratib olish muammosi jiddiy texnik vazifaga aylanmoqda. Shu munosabat bilan akrilamidning to'yinmagan kislotalar bilan sopolimerlari asosida yuqori samarali anionli flokulyantlar yaratish hamda ularni olishning pH va ion kuchining tebranishlarida barqarorlikni ta'minlaydigan yarim sanoat texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish uchun polimerlarning tarkibi va sintez sharoitlarini optimallashtirish, ularning tuzilishi va funksionalligini tasdiqlash, mineral hamda aralash organo-mineral suspenziyalarda ko'priksimon flokulyatsiyaning kinetikasi va mexanizmini aniqlash hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish dolzarb hisoblanadi.

Jahonda bugungi kunda suvni tayyorlash va mineral xom ashyoni qayta ishlash uchun, mineralli va aralash organo-mineralli suspenziyalarda ishlashga mo'ljallangan yuqori samarali anionli flokulyantlar yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, xususan, mineral hamda aralash organo-mineral suspenziyalarda samarali ishlashga mo'ljallangan flokulyantlarni yaratish, monomer kompozitsiyalarini tanlash va mavjud xomashyo bazasini ta'minlash, molekulyar massa va anionlilik darajasini boshqarish uchun sintez va initsirlash sharoitlarini optimallashtirish, polimerlarning tuzilishi va funksionalligini tasdiqlash, mineral suspenziyalarda hamda "neft-suv" emulsiyalarida ko'priksimon flokulyatsiyaning kinetikasi va mexanizmini aniqlash hamda yarim sanoat miqyosida ularni olish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyo asosida suvni tozalash uchun materiallar, xususan, flokulyantlar hamda boshqa kimyoviy reagentlar ishlab chiqish texnologiyalarini yaratish yo'nalishida qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning uchinchi yo'nalishida "milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko'paytirish"¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, sanoat va atrof-muhit muhofazasi zamonaviy talablariga javob beradigan yuqori samarali flokulyantlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash» va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

«Yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26 sentabrdagi PF-149-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta'minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda sintetik va biopolimer flokulyantlar sohasida yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilib, suvni tayyorlash va mineral xomashyoni qayta ishlash maktablari (J. Gregory, B.A. Bolto, J.K. Edzwald, P. Somasundaran va boshqalar) tomonidan koagulyatsiya/flokulyatsiya mexanizmlarini, selektiv flokulyatsiyani hamda poliakrilamidning suvni tozalash va mayda fraksiyalarni boyitishda qo'llanishini anglashning ilmiy asosi shakllantirilgan.

O'zbekistonda K.S. Ahmedov rahbarligida yuqori kolloid-kimyoviy xususiyatlarga ega flokulyantlarni o'rganishga qaratilgan ilmiy maktab shakllangan bo'lib, unga E.A. Aripov, F.L. Glekel, S.S. Xamrayev, S.N. Aminov, A.A. Agzamhodjayev, U.K. Ahmedov, G.R. Narmetova, I.K. Satayev, R.R. Maxkamov, I.D. Eshmetov va boshqalarning salmoqli hissalarini qo'shilgan.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtgacha akrilamid va to'yinmagan kislotalar sopolimerlari asosida anion flokulyantlar yaratishga qaratilgan, aralash mineral va organo-mineral tizimlar uchun mo'ljallangan kompleks tadqiqotlar olib borilmagan. Xususan, ko'priksimon flokulyatsiyaning kinetikasi va mexanizmi, dozalanish oynalari hamda pH/ion kuchi ta'sirini birgalikda o'rganish, shuningdek, ularni olishning yarim sanoat texnologiyasi, moddiy-energetik balanslari va tannarxini baholash masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Shu munosabat bilan, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish yuqori samarali flokulyantlar olishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish uchun muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida «Neft, neft-gaz qazib chiqarish sanoati oqova suvlari uchun adsorbentlar va reagentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish, shuningdek, harakatchan tuproq-qum dispersiyalarida mustahkam tuzilma hosil qiluvchi reagentlar tarkibini yaratish» mavzusidagi davlat dasturi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi akrilamid sopolimerlari asosida flokulyantlar olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda ular yordamida suvni organik va noorganik ifloslantiruvchilardan tozalashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

monomer kompozitsiyalarini (akrilamid (AA) + akril (AK)/malein (MK) kislotalari) va sintezning maqsadli parametrlari: harorat, davomiylik, molyar nisbat, initsiator tizimini asoslash;

AA va AK (FAK), MK (FMK) sopolimeri eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlari hamda o'nimlari asosida sintezning optimal sharoitlarini aniqlash;

sopolimer flokulyantlarning tuzilishini aniqlash uchun fizik-kimyoviy tadqiqotlar o'tkazish;

modellashgan mineral suspenziyalarda (bentonit, kalsiy karbonat) flokulyatsiya kinetikasini o'rganish, optimal dozalarni, tiniqlashish tezligini, flokula hajmi va mustahkamligini aniqlash;

“neft-suv” aralash tizimlari va organo-mineral dispersiyalarda flokulyatsiyani o'rganish hamda samaradorligini tijorat polimerlari (PAAM, gidrolizlangan poliakrilonitrillar) bilan taqqoslash;

flokulyantlar olishning yarim sanoat texnologik sxemasini ishlab chiqish va ularning moddiy, energetik hamda vaqt balanslarini hisoblash.

Tadqiqotning obyektlari sifatida suvda eruvchan anion flokulyantlar – akrilamidning akril kislotasi bilan sopolimerlari (4FAK–8FAK) hamda malein kislotasi bilan sopolimerlari (4FMK–8FMK), ya'ni monomerlarning AA/kislota \approx 4:1–8:1 molyar nisbatida olingan namunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini sintez sharoitlarining (harorat, vaqt, monomerlar nisbati, initsiyator turi) 8FAK/8FMK ning molekulyar-massa va zaryad xususiyatlariga ta'sirini o'rganish, bentonit va kaltsit suspenziyalarida hamda “neft-suv” emulsiyalarida ko'priksimon flokulyatsiyaning kinetikasi va mexanizmini aniqlash, ularni qo'llashning ekspluatatsion rejimlari va samaradorlik mezonlarini belgilash, yarim sanoat texnologiyasi parametrlarini ishlab chiqish hamda moddiy-energetik xarajatlar va bevosita tannarxini baholash tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda flokulyantlar va dispers tizimlarning fizik-kimyoviy (elektron-mikroskopik, IQ-spektroskopik, rentgenografik, termik tahlillar) hamda kolloid-kimyoviy (viskozimetriya, titrometriya) xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy va an'anaviy usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

7FAK–8FAK sopolimerlari uchun optimal sintez sharoitlari AA/AK = 7–8/1 nisbatida 45–50 °C da, 7FMK–8FMK sopolimerlari uchun esa AA/MK = 7–8/1 nisbatida 50–55 °C da ekanligi, bu polimerizatsiya tezligi va initsiatorning parchalanishi o'rtasidagi muvozanat bilan bog'liq bo'lib, yuqori o'nim va qovushqoqlik ko'rsatkichlarini ta'minlashi aniqlangan;

AA–AK va AA–MK sopolimerlari suvda eruvchan qoldiq monomerlersiz amido-karboksil guruhlariga ega chiziqli statistik zanjirlardan tashkil topgan va termobarqarorligi bilan farqlanib (8FMK uchun kimyoviy destruksiya boshlanishi \sim 40–50 °C ga yuqoriga siljishi qayd etilgan), bu esa maleinat bo'g'inida ikkita karboksil guruhining yonma-yon joylashuvi bilan isbotlangan;

kaltsiy karbonat suspenziyasida 8FMK 0,125–0,20 % konsentratsiyada 88 % gacha, 8FAK esa \approx 0,25 % da 75 % atrofida tiniqlashishni ta'minlab (bentonit suspenziyasida 8FAK va 8FMK 0,25–0,50 % diapazonda 82–88 va 70–75 %), bu CaCO₃ yuzasida 8FMK ning karboksil guruhlari orqali hosil bo'ladigan kalsiy-koordinatsion «ko'priklar» va manfiy zaryadlangan smektit plastinkalarida uzun polimer ko'priklar talab etilishi bilan bog'liqligi aniqlangan;

barqaror «neft-suv» emulsiyalarida har ikki sopolimer ham tizimni ko'priksimon flokulyatsiya rejimiga tez o'tkazishi va 8FMKning 0,25 % miqdorida tiniqlashish tezligi $t_{50} \approx 15$ soat, 8FAK uchun esa $t_{50} \approx 16-17$ soat bo'lib, bu 8FMK sistemasida fazolar ora chegara plyonkasida yuqori adsorbsion/koordinatsion qobiliyatiga ega karboksil guruhlari miqdori ko'pligi bilan izohlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mineral dispersiyalarni selektiv flokulyatsiya qilish uchun flokulyantlar yaratishning metodik asoslari ishlab chiqilgan;

akrilamid va to'yinmagan kislotalar sopolimerlari asosida flokulyantlar ishlab chiqarishning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqotlar zamonaviy fizik-kimyoviy (elektron-mikroskopik, termik, IQ-spektral) hamda kolloid-kimyoviy (viskozimetriya, titrometriya) tahlillar asosida olib borilgan, akrilamid sopolimerlari asosida flokulyantlar olish texnologiyasini oqova suvlarni tozalashda qo'llash bo'yicha sinovlar esa «Elektrokimyozavod» AJ QK bazasida amalga oshirilib, sinov aktlari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi flokulyantlar – akrilamid va akril kislotasi hamda akrilamid va malein kislotasi sopolimerlarini sintez qilish jarayonlari metodologiyasini ishlab chiqish, mineral dispersiyalar va neft saqlovchi emulsiyalarda kuchaytirilgan flokulyatsiya uchun flokulyantlarning optimal konsentratsiyalarini aniqlash bilan asoslanib, bu turli maqsadlar uchun flokulyantlar yaratish jarayonini maqsadli amalga oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sopolimerlarini sintez usulini ishlab chiqish hamda texnik va oqova suvlarni tozalash uchun yangi flokulyantlar olish texnologiyasini ishlab chiqishda, ularni turli sharoitlarda selektiv flokulyatsiya jarayonida qo'llashda, shuningdek ta'lim muassasalarida kimyo, kimyoviy va ekologik texnologiya sohalarida bakalavr va magistr mutaxassislarini tayyorlash jarayonida qo'llanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish. Akrilamid sopolimerlari asosida suvni tozalash uchun flokulyantlar olish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oqava suvlarni organik va noorganik mddalardan tozalash uchun flokulyantlar ishlab chiqarish texnologiyasi «Elektrokimyozavod» AJ QKda «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Elektrokimyozavodi» AJ QKning 2025 yil 25 avgustdagi № 95-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sintez qilingan mahsulotlar mahalliy sharoitida import qilingan flokulyant analoglarini to'liq almashtirish imkonini beradi;

akril va malein kislotalari bilan akrilamid sopolimerlari asosida oqava suvlarni tozalash uchun flokulyantlar «Elektrokimyozavod» AJ QKda «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Elektrokimyozavodi» AJ QKning 2025 yil 25 avgustdagi № 95-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qoldiq ko'rsatkichlarini tijorat PAAGA nisbatan muallaq moddalar 20-30 %, loyqalik 25-35 %, XIK 20-35 %, БИК₅ 25-30% va umumiy organik uglerod 20-30 % ga kamaytirish orqali texnik suvga muvofiqligini ta'minlash

imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda bayon etilgan va muhohakamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 3 ta Respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya xajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va talab yuqoriligi asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi yoritilgan, ilmiy yangilik, nazariy va amaliy ahamiyat bayon etilgan, tadqiqot natijalarini joriy etish, chop etilgan ishlanmalar, aprobatsiya hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Polimer flokulyantlar va ularning suvni organik va noorganik barqaror ifloslantiruvchilardan tozalashdagi qo'llanilishi**» deb nomlangan birinchi bobida suvni tozalash uchun polimer flokulyantlarga oid masalalar yoritilgan, flokulyatsiya mexanizmlari va flokulyatsiya jarayonlarida polimer ko'priklarining o'rni tahlil qilingan, suvni flokulyatsion tozalash uchun poliakrilamidlarni ishlab chiqishga oid tadqiqotlar keltirilgan. O'tkazilgan tahlil ushbu dissertatsion tadqiqotning maqsadini shakllantirish va vazifalarni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning «**Akrilamid asosidagi flokulyantlarni sintez qilishning metodik asoslari va ularning xususiyatlarini o'rganish**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari yoritilgan.

Tadqiqot obyektlari sifatida anion flokulyantlar – akrilamidning akril (8FAK) va malein (8FMK) kislotalari bilan sopolimerlarini sintez qilish uchun yuqori tozalikka ega monomerlar va reagentlardan foydalanilgan. Malein kislotasi ($\geq 99\%$) suvda eriydigan ikki asosli kislota ($pK_{a1} \approx 1,9$; $pK_{a2} \approx 6,2$) bo'lib, zich karboksil funktsionalligini shakllantiradi va metall ionlari bilan kompleks hosil qilishga moyil. Akril kislotasi ($\geq 99\%$) suv bilan to'liq aralashadi, $pK_a \approx 4,25$ ga ega va o'z-o'zidan polimerlanishni oldini olish maqsadida ingibitor (MEHQ) bilan ta'minlanadi. Akrilamid ($\geq 99\%$) suvda eriydigan kristall monomer bo'lib, toksikologik talablar asosida qo'llanilgan. Initsiatsiya ammiak persulfati yordamida amalga oshirilgan, eritmalar esa qo'llanishidan oldin tayyorlangan. Ion kuchi, pH va neytrallanish darajasi KCl, KOH va HCl yordamida boshqarilgan. Polimerlarni cho'ktirish va yuvish jarayonlari atseton yordamida olib borilgan, reaksiya muhiti sifatida ikki marta distillangan suv ishlatilgan. Qo'shimcha reagentlar laboratoriya/analitik tozalikka ega

holda, tozalik va qayta takrorlanish standartlariga rioya qilingan holda qo'llanilgan.


Polimerlash jarayoni suv muhitida, pH ning kislotali qiymatlarida (ishqor va neytrallovchi qo'shimchalarsiz, somonomerlarning o'zi tomonidan hosil qilingan) olib borilgan bo'lib, bu o'sib borayotgan makroradikallarning elektrostatik turtkilanishini kamaytiradi va uzun zanjirlarning shakllanishiga imkon yaratadi. AA-AK va AA-MK seriyalari sintezi aralashtirgich, qaytarma sovutkich va termostatlash tizimiga ega borosilikat reaktorda amalga oshirilgan: 100 ml suvda kislota somonomeri va akrilamid eritilgan, bunda kislota:AA molyar nisbatlari 1:4-1:8 qilib tanlangan (AA-MK uchun: 0,01462-0,025 mol MK va 0,100-0,117 mol AA; AA-AK uchun esa stexiometriyaga muvofiq xuddi shunday). Reaksiya aralashmasi azot bilan degazatsiya qilingan va germetik yopilgan; initsiatsiya yangi tayyorlangan ammiak persulfati yordamida amalga oshirilgan, u monomerlar massasiga nisbatan 0,01-0,10 % miqdorda qo'llanilgan. Polimerlash jarayoni 50 °C da 6 soat davomida o'rtacha tezlikdagi aralashtirish sharoitida olib borilgan; jarayon yakunida pH ≈ 2,1-2,2 bo'lgan bir jinsli qovushqoq eritma olingan.

Polimerni ajratib olish jarayoni atsetonni bosqichma-bosqich qo'shish orqali to'liq koagulyatsiyagacha cho'ktirish, so'ngra sentrifugalash va qoldiq monomerlar hamda past molekulyar aralashmalarni yo'qotish uchun atseton bilan yuvish orqali amalga oshirilgan; quritish 40 °C da vakuum ostida doimiy massa hosil bo'lguncha olib borilgan. Ko'rsatilgan sharoitlarda har ikki tizim uchun yuqori chiqish (≈94,1-99 %) qayta-qayta tasdiqlangan bo'lib, karboksil guruhlari -COOH shaklida saqlangan, yuqori molekulyar massali suvda eruvchan mahsulotlar hosil qilingan. Ushbu mahsulotlar ko'priksimon flokulyatsiya mexanizmini amalga oshirish uchun yaroqli ekanligi isbotlangan.

Dispers fazalar sifatida Navbahor koni bentoniti, tovar kaltsiy karbonati (CaCO₃) va Farg'ona NQZning real oqova suvlari ishlatilgan; qattiq materiallar dastlab elakdan o'tkazish usuli bilan <1 mm gacha fraksiyalangan, namligi aniqlangan va barcha dozalar quruq modda hisobida kiritilgan. Bentonit 5 % li suvli suspenziya ko'rinishida tayyorlangan, bunda 1 mass.% kokamid DEA qo'shilgan: kukun yuqori tezlikda (voronka hosil qilib) kiritilgan, so'ngra 300-400 ayl/min da 45-60 daqiqa davomida dispersiyalangan va 20-25 °C da 12 soat «yetiltirilgan», tajriba oldidan esa qisqa muddatli aralashtirish amalga oshirilgan. Kaltsiy karbonat 10 % li suspenziya ko'rinishida 1% og'. kokamid DEA bilan tayyorlangan: dastlab kukun namlangan, 400-500 ayl/min da 20-30 daqiqa aralashtirilgan, zarurat tug'ilganda ultratovush bilan 5 daqiqagacha ishlov berilgan; so'ng 15-20 daqiqa degazatsiya qilinib, tayyorlangan kuni ishlatilgan. Oqova suvlar o'rtacha namuna namuna asosida olingan, 4±2 °C da saqlangan va 24-48 soat davomida, 1 mm li elakdan o'tkazilgach, pH, loyqalik, ranglilik, XPK/TOC ko'rsatkichlari o'lchanganidan keyin ishlatilgan; real suv namunalari tarkibiga qo'shimcha SFM kiritilmagan. Barcha tajribaviy sinovlarda 20-25 °C harorat, ikki marta distillangan suv, bir xil aralashtirish/ushlab turish vaqtlari ta'minlangan hamda flokulyatsiya tajribalarini boshlashdan avval suspenziyalar barqarorligi (30-60 daqiqa) nazorat qilingan.

Dissertatsiyaning «**Flokulyantlarni sintez qilish va ularning flokulyatsion xususiyatlarini o'rganish**» deb nomlangan uchinchi bobida sopolimerlarni sintez

qilish jarayonlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.



1-rasm. Sopolimerlash reaksiyasi unumining haroratga bog'liqligi

Barcha tajribaviy sinovlarda 45–50 °C atrofida reaksiya unumining tor harorat maksimumlari qayd etilgan: AA–AK uchun 95–96 %; 45 °C dan pastda unum 6–18 foiz punktiga kamaygan, 50–55 °C dan yuqorida esa qizib ketish sababli 60 °C da 84–91 % gacha pasaygan. AA–MK uchun 35–40 °C da unum ancha past bo'lgan, ammo 50–55 °C da barqarorlashib ≈93–95 % ni tashkil etgan; 60 °C da 5FMK ≈91 % unumni saqlagan, 7FMK esa ≈84 % gacha tushgan. AA ulushi 7:1 gacha oshirilganda AA–AK tizimida butun harorat diapazonida konversiya o'sishi kuzatilgan; AA–MK uchun esa 35–50 °C da 7:1 tarkib afzal hisoblanib, 55–60 °C da turlicha termosezuvchanlik va zanjir uzilishlarining ko'payishi tufayli 5:1 nisbat barqarorroq bo'lgan.

1-jadval ma'lumotlari har ikki tizim uchun ~50 °C da konversiyaning aniq maksimumini va AA ulushi ortishi bilan (4:1 dan 8:1 gacha) unumning oshishini tasdiqlaydi: FAK uchun 8:1 nisbatda 40–50 °C da 94–97 % ga erishilgan, 60 °C da esa initsiatorning tez parchalanishi va zanjirlarning uzilishi hisobiga pasayish kuzatilgan. AA ulushining ortishi protonlangan karboksil markazlari ulushini kamaytiradi, intermolekulyar assotsiatsiyalarni va diffuzion cheklanishlarni susaytiradi, shu orqali zanjirlarning o'sishini tezlashtiradi.


1-jadval

Harorat va monomerlar nisbatiga bog'liq holda sopolimerlash jarayonining unumi


Namuna	Harorat, °C	Monomerlar nisbati, AA/Kislota		
		4/1	6/1	8/1
FAK	40	76,1	88,6	94,3
	50	78,2	89,2	96,5
	60	74,3	86,8	91,2
FMK	40	66,2	78,2	83,3
	50	71,3	79,6	95,1
	60	74,6	77,3	88,2

FMK uchun 40 °C da unum past bo'lib, bu kuchli vodorod bog'lanishlari va MK ning ikki asosli kislotali tabiatiga bog'liq; 50 °C da konversiya keskin ortib, 8:1 nisbatda ~95 % ga yetadi va 60 °C da yana pasayadi. Optimal sharoitlar sifatida 50 °C atrofidagi mo'tadil haroratlar hamda AA boyitilgan tarkiblar (8:1) belgilangan; ~40 °C va ≥55–60 °C rejimlari esa maqsadga muvofiq emas.

Umumiy unum va qovushqoqlik ko'rsatkichlari majmuasidan kelib chiqib, keyingi tadqiqotlar uchun optimal tarkiblar tanlab olindi: 50 °C da sintez qilingan 8FAK va 55 °C da sintez qilingan 8FMK. Olingan ma'lumotlar quyida keltirilgan.



2-rasm. 8FAK ning IQ-spektri.



3-rasm. 8FMK ning IQ-spektri.


8FAK (AA–AK, 8:1) ning IQ-spektri amidli chiziqlar bilan xarakterlanadi: amid I 1651 cm^{-1} , amid II $\sim 1587 \text{ cm}^{-1}$, amid III/ $\nu(\text{COO}^-)$ $\sim 1415 \text{ cm}^{-1}$; $1170\text{--}1110 \text{ cm}^{-1}$ oralig‘ida $\nu(\text{C-O})/\nu(\text{C-N})$ tebranishlari kuzatiladi, $973/814 \text{ cm}^{-1}$ da skelet tebranishlari mavjud; monomer $\text{C}=\text{C}$ chiziqlari qayd etilmagan. Erkin kislota karbonilining ($1710\text{--}1730 \text{ cm}^{-1}$) aniq chizig‘ining yo‘qligi AK ulushining pastligi va kuchli vodorod bog‘lanishlari/qisman dissotsiatsiya bilan izohlanadi, bu esa p(AA-co-AK) strukturasi va COOH-funksionalligining saqlanishi bilan mos keladi.

8FMK namunasi 8FAK ga nisbatan yanada kuchli karboksil quyi tizim va vodorod bog‘lanishlarini namoyon etadi: N–H/O–H tebranishlarining ikkiga ajralgan maksimumi ($\approx 3347/3200 \text{ cm}^{-1}$), amid II polosasi 1568 cm^{-1} ga siljishi, 1440 va 1351 cm^{-1} da intensiv chiziqlar hamda $\Delta\nu(\text{COO}^-)$ ning kichik qiymati, shuningdek $\nu(\text{C-O})$ ning yagona maksimumi $\sim 1167 \text{ cm}^{-1}$ va tekislikdan tashqari tebranishlarning 872 cm^{-1} ga siljishi qayd etilgan. Barcha hollarda $\text{C}=\text{C}$ polosalarining yo‘qligi to‘liq konversiyani tasdiqlaydi; 8FMK uchun spektral belgilar maleinat bo‘g‘inidagi yonma-yon joylashgan ikki karboksil guruhlarini hamda makrozanjirlarning yanada “bog‘langan” lokal muhitini aks ettiradi.


Model noorganik fazalar sifatida bentonit (Navbahor konidan olingan montmorillonit saqlovchi gil) va kaltsiy karbonati (bo‘r, asosan kaltsit) tanlab olingan.

RFA ma‘lumotlariga ko‘ra, CaCO_3 ning asosiy fazasi — kaltsit (R-3c) bo‘lib, $2\theta \approx 31,3\text{--}31,5^\circ$, $39,4\text{--}39,5^\circ$ (113 tekislik) va $71,6\text{--}71,8^\circ$ da xos reflekslar qayd etilgan va ular etalon bilan mos keladi. Past fon va begona cho‘qqilarning yo‘qligi yuqori kristalliklik darajasi hamda aralashmalarning juda kamligini ko‘rsatadi; namuna keyingi flokulyatsion sinovlar uchun reprezentativ hisoblanadi.

RFA natijalari bentonit uchun $2\theta \approx 5,3\text{--}6,5^\circ$ da past burchakli reflekslarni ko‘rsatadi ($d_{001} \approx 16,6\text{--}13,6 \text{ \AA}$), bu qisman gidratlangan smektitga xosdir. Shuningdek, illitning cho‘qqilari ($\approx 8,84^\circ$, $d \approx 10 \text{ \AA}$) va kaolinitniki ($\approx 12,1\text{--}12,5^\circ$, $d \approx 7,3\text{--}7,1 \text{ \AA}$) qayd etilgan. Yuqori burchaklarda esa kvarts ($\approx 26,66^\circ$) va kaltsit ($\approx 29,48^\circ$) chiziqlari yaqqol ifodalangan bo‘lib, ular tabiiy aralashmalarni ko‘rsatadi. d_{001} ning $\approx 14\text{--}16 \text{ \AA}$ diapazondagi holati Ca-smektitning ustunligini hamda qatlamlararo gidratatsiyaning yuqoriligini bildiradi (Ca^{2+} ionlarining anion polimerlar bilan ko‘prik hosil qilish ehtimoli mavjud). Shu bilan birga, illit va kaolinitning qo‘shilishi adsorbsiyaga va flokulyatsiya jarayonining ishchi pH qiymatlariga ta‘sir etuvchi chekka kislota-asosiy markazlarni qo‘shib beradi.




4-rasm. Foydalanilgan kaltsiy karbonatining rentgenogrammasi.




5-rasm. Foydalanilgan bentonitning rentgenogrammasi.

Bentonit va boʻrni yagona kinetik sharoitda taqqoslash ularning sirt zaryadi va disperslik taʼsirini ajratib koʻrsatishga imkon berdi: bentonitda mayda fraksiya va manfiy bazal zaryad tufayli dastlabki tiniqlashish sekinlashgan, boʻrda esa yirik floklarning siljishga chidamliligini belgilovchi zarrachalararo kontaktlarning mustahkamligi chegaralovchi omil boʻlgan. Tadqiqotning birinchi bosqichida flokulyantsiz statik sharoitda oʻz-oʻzidan tiniqlashish oʻrganilgan. Tiniqlashgan qatlam hajmining vaqtga bogʻliqligi 6-rasmda keltirilgan.

Flokulyantsiz sharoitda CaCO_3 tez choʻkadi: tiniqlashgan qatlam hajmi ~ 3 ml dan 60 daqiqada 76 ml gacha oshadi, ~ 100 daqiqada 90 ml ga yetadi va ~ 500 daqiqada ~ 95 ml atrofida plato kuzatiladi. Kinetika ikki bosqichli boʻlib, dastlabki tezlik 10–40 daqiqalarda $\sim 1,5$ ml/min gacha yetadi, $t_{50} \approx 30\text{--}35$ daqiqa, bu esa zich zarrachalarning gravitatsion choʻkishiga mos keladi. Bentonit esa, aksincha, juda sekin choʻkadi: 60 daqiqada ~ 8 ml, 200–300 daqiqalarda 33–38 ml, 500–1000 daqiqalarda esa ~ 39 ml darajasida plato hosil qiladi; oʻz platoga nisbatan $t_{50} \approx 120\text{--}140$ daqiqani tashkil etadi. Bu holat mayda fraksiya, shishish jarayoni va smektitning manfiy bazal zaryadi bilan bogʻliq. Shunday qilib, boʻr uchun moʻtadil dozada mustahkam floklar talab etiladi, bentonit uchun esa yuqoriroq doza va choʻzilgan, sekin aralashtirish zarur. Fon agregatsiyasini bartaraf etish maqsadida model suspenziyalar 1 mass.% kokamid DEA bilan barqarorlashtirildi: 24 soat davomida turgʻuzilganda tiniqlashgan qatlam hosil boʻlmadi. Barcha taqqoslama sinovlar ana shunday barqarorlashtirilgan tizimlarda oʻtkazildi.




6-rasm. KK (10 %) va NB (5 %) suspenziyalarida tiniqlashgan qatlam hosil boʻlish kinetikasi.




7-rasm. Flokulyantlarning turli miqdorlarida flokulyatsiya kinetikasi.

“Tiniqlashgan qatlam hajmi – doza” egri chiziqlari pog‘onali shaklga ega bo‘lib, bu ko‘priksimon flokulyatsiyani va ortiqcha dozalanishda yuzaga keladigan qayta barqarorlashishni tasdiqlaydi. CaCO_3 uchun eng yaxshi natijani 8FMK beradi: maksimal tiniqlashish $\approx 88\%$ 0,125 % dozada kuzatiladi, undan keyin samaradorlik muntazam kamayadi; 8FAK esa $\approx 75\%$ tiniqlashishga 0,25 % da erishadi. Bentonit uchun esa 8FAK afzal: 0,25–0,5 % diapazonda 82–88 % tiniqlashish ta‘minlanadi; 8FMK 0,125–0,25 % da 70–75 % bilan chegaralanadi va yuqori dozalar berilganda tizimni keskin qayta barqarorlashtiradi. Amaliy jihatdan: karbonat suspenziyalar uchun 8FMK ning past dozali rejimi, smektitli suspenziyalar uchun esa 8FAK ning mo‘tadil dozalarida va cho‘zilgan sekin aralash tirish bilan qo‘llanishi maqsadga muvofiq; har ikkala holatda ham ortiqcha dozadan qochish zarur. Asosiy sinovlar bo‘rning o‘z-o‘zidan tiniqlashishini va bentonitning barqarorligini tasdiqladi; taqqoslash uchun model suspenziyalar 1 mass.% kokamid DEA bilan barqarorlashtirilgan.

Keyingi tadqiqot bosqichi AA–AK va AA–MK sopolimerlarining aralash dispersiyalarda (bentonit, CaCO_3) model organik ifloslantiruvchilar ishtirokida ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlandi. Ishchi dozalarining qiymati va reagentlarni kiritish tartibi, pH va ion kuchining ta‘siri, shuningdek polimerlarning organik molekulalar bilan adsorbsion markazlar uchun raqobati baholandi. Model tizim sifatida 40:60 nisbatdagi “og‘ir neft-suv” emulsiyalari ishlatildi, ular 1 mass.% natriy stearati bilan barqarorlashtirildi; demulsifikatsiya kinetikasi va barqarorlik UV-Vis spektroskopik usuli yordamida optik zichlikdagi o‘zgarishlar asosida qayd etildi.



8-rasm. Tizimning optik zichligi saqlash jarayonida (25 °C) o‘zgarishi.



9-rasm. Tizim massasiga nisbatan 0,25 % flokulyant qo‘llanganda optik zichlikning o‘zgarishi (25 °C).


D(t) egri chizig‘iga ko‘ra, natriy stearati bilan barqarorlashtirilgan “neft-suv” emulsiyasi sekin parchalanish bilan barqarorlikni namoyon etadi. Optik zichlik bir sutka davomida $\sim 2,7$ dan $\sim 1,9$ gacha pasayadi, ya‘ni taxminan 30 % kamayadi. Dastlabki soatlarda o‘zgarishlar ahamiyatsiz bo‘lib, 2-soatdagi kichik ko‘tarilish (2,8) namuna olish xatoligi yoki dispers tuzilmaning dastlabki qayta tashkil topishi bilan izohlanadi. 5–10-soatlardan boshlab D ning sezilarli pasayishi kuzatiladi, 15-soatdan keyin esa tezlik sekinlashadi. Bunday kinetika barqaror emulsiyaga xos bo‘lib, bunda uzoq vaqt davomida tez koalesensiya emas, balki tomchilarning sekin yiriklashish jarayonlari ustunlik qiladi.

Egri chiziqlarni taqqoslash (9-rasm) shuni ko‘rsatadiki, sintez qilingan har ikkala sopolimer emulsiyalarning parchalanishini keskin tezlashtiradi. 8FMK qo‘shilganda optik


zichlik 20-soatga kelib 2,7 dan 0,8 gacha, 40 soatda esa 0,2 gacha tushadi; to'liq tiniqlashish 60 soatda qayd etiladi. 8FAK uchun dinamika yaqin bo'lsa-da, biroz sekinroq: 20-soatga kelib optik zichlik 2,7 dan 1,1 gacha, 40 soatda 0,3 gacha kamayadi va nol qiymatga 60 soatda erishiladi.

Tovar poliakrilamidi (PAAM) ancha sust ta'sir ko'rsatadi: xuddi shu sharoitlarda optik zichlik 40 soatda faqat 1,4 gacha kamayadi va nol qiymatga faqat 120 soatda erishiladi. Bu holat PAAM ning neytral tabiatiga mos keladi: karboksil markazlari bo'lmagani sababli u natriy stearati bilan fazalararo plyonka uchun sustroq raqobatlashadi va tomchilararo kamroq samarali ko'priklar hosil qiladi. Aksincha, gidrolizlangan poliakrilonitril (GIPAN) aniq barqarorlashtiruvchi effekt namoyon etadi: D deyarli kamaymaydi va 120 soatgacha 2,0–2,1 atrofida saqlanadi. COO⁻ guruhlarini zich joylashgan polimer zanjiri suv fazasining qovushqoqligini oshiradi va tomchilarni elektrosterik himoya bilan o'rab, koalesensiya hamda suzib chiqishga to'sqinlik qiladi.

“Neft-suv” emulsiyasiga mineral tarkibning ta'sirini baholash uchun tarkibida 0,1% og' kaltsiy karbonat (KK) va 0,1 mass.% Navbahor bentoniti (NB) qo'shilgan namunalari tayyorlandi. Bu qo'shimchalar oqova suvlarga xos bo'lgan suspenziyalangan mineral aralashmalarni modeli sifatida xizmat qiladi.



10-rasm. Neft+suv+bentonit (0,05 %) tizimining optik zichligining turli flokulyant konsentratsiyalari ta'sirida o'zgarishi (25 °C).



11-rasm. Neft+suv+KK (0,05 %) tizimining optik zichligining turli flokulyant konsentratsiyalari ta'sirida o'zgarishi (25 °C).

0,05 % bentonit ishtirokida boshlang'ich $D_0 \approx 2,9$ bir xil bo'lsa-da, javob turlicha namoyon bo'ladi: anion sopolimerlar uchun optimal diapazon tor — 0,20–0,30 %. 8FMK qo'shilganda 0,20 % da to'liq tiniqlashish ($D=0$) kuzatiladi, ammo 0,4–1,0 % da qayta barqarorlashish ($D \approx 0,5–2,0+$) sodir bo'ladi. 8FAK esa 0,20–0,30 % da $D \approx 0,10–0,04$ minimal qiymatlarni beradi, 0,5–1,0 % da esa $D \approx 0,6–1,3$ gacha ortadi. Poliakrilamid sezilarli darajada sustroq ($D \approx 0,2–0,3$ minimal qiymat 0,3–0,4 % da, undan keyin 1,1–1,3 gacha ko'tariladi), GIPAN esa barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi (0,1–0,3 % da $D \approx 0,8–0,9$, keyinchalik 2,3–2,4 gacha oshadi). Mexanizm nuqtayi nazaridan, manfiy zaryadlangan bentonit plastinkalari kichik dozalarda ko'priksimon flokulyatsiyani qo'llab-quvvatlaydi (8FMK uchun bu yaqin joylashgan COOH-guruhlarining kaltsiy bilan koordinatsiyasi hisobiga kuchayadi), ortiqcha dozalanishda esa elektrosterik qayta barqarorlashish yuz beradi. Amaliy jihatdan optimal dozalar 0,20–0,30 % bo'lib, 8FMK tezroq demulsifikatsiya qiladi, 8FAK esa doza o'zgarishlariga nisbatan barqarorroqdir.

Kaltsit matritsasi demulsifikatsiya barcha flokulyantlar uchun osonlashadi,


